

G‘AFUR G‘ULOM MEROSINING O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI
TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

G‘ulomjonov Hakimbek Shavkatjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi

“M.Najimov” ilmiy maktabi a‘zosi

Telefon: + 998 (90) 840 22 03

E-mail: hakimbekgulomjonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi G‘afur G‘ulom asarlarining o‘zbek bolalar adabiyotini shakillanishida tutgan beqiyos o‘rni, adib yaratgan asarlarda bolalik mavzusi haqida keltirilgan fiklari va hissiyotlari tahlil etilgan. Shuningdek, adib merosining hozirgi vaqtdagi bolalar adabiyotidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bolalik, adib, abadiyat, yoshlik, muhabbat, insonparvarlik, istiqbol, e‘tiqod, bolalar dunyosi, maktab, tarbiya, o‘quvchi.

XX asr o‘zbek adabiyotining atoqli namoyandasi G‘afur G‘ulom ijodiyotining katta qismi ayni paytda bolalar adabiyotiga ham to‘laligicha taalluqlidir. G‘afur G‘ulomning bolalar adabiyotiga aloqasi haqida so‘z yuritilar ekan, dastavval, uning bolalar uchun maxsus yaratgan asarlarini tilga olish joiz. “Mukofot” (1940), “She‘rlar”(1946), “Tongotar qo‘shig‘i” (1949), “Bari seniki” (1953), “Bir g‘uncha ochilguncha” (1955), “Siz mening yoshligimsiz” (1958) singari she‘riy to‘plamlarda shoir yosh avlodni, jumladan, o‘z farzandlarini ham eng yaxshi umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga ahd qilgan talabchan murabbiy, farzandlari kamolidan faxrlanayotgan va Vatan kelajagini ishonchli qo‘llarga topshirayotganidan qalbi quvonchlarga to‘liq mehribon ota sifatida namoyon bo‘ladi. G‘afur G‘ulomning bolalarga mo‘ljallangan asarlari jamlangan “Farzan dlarimga” she‘riy to‘plami fikrimiz dalilidir. Kitob dastlabki sahifasidanoq yosh kitobxonlarga bag‘ishlangan:

Jonimdan shirin ko‘rgan bolalarimga atab

Tongotarlar qissasi shu kitobni yozoldim,

Bir zarra oftobdir uyga kirgan har kitob

Va qo‘limdan kelgancha gullarni o‘tqazoldim;

Arg‘uvon yaprog‘idek sahifasin varaqlab,

Rangin tomosha qilib dimog‘ingiz bo‘lsa chor,

Shoir otamiz yozgan, desangizu ardoqlab,

Men ham har dam qo‘sh varag‘da sizga ochaman quchoq!¹ -

Murojaat satrlari bilan boshlanishi ham bejiz emas. Zero ushbu kitobida shoir, avvalo, o‘sib kelayotgan yosh avlod kamolotidan faxru iftixor tuyg‘ularini sevinch bilan izhor qilayotgan mehribon ota va murabbiy sifatida namoyon bo‘ladi.

“Ma‘lumki, har bir asar o‘z davrining mahsuli va unda qay daraja- dadir shu davr xususiyatlari aks etadi. Binobarin, G‘afur G‘ulomning yuqorida qayd etilgan to‘plamlari ham bundan mustasno emas. Ulardagi bir qator she‘rlar, garchi, Sho‘ro mafkurasi ta‘siridan xoli bo‘lmasa-da, to‘laligicha olganda, shoir ijodiyotida sof lirika ustuvorlik qiladi. Uning bolalar adabiyotimiz alohida adabiyot sifatida endigina atakchek qilayotgan 30-yillarda yaratilgan she‘rlarida tarbiyaviylik pand-nasihat, axloq-odob ruhi hamda fan-texnika yutuqlari targ‘ibi xarakteridagi ma‘rifiylik yetakchi mavqe kasb etsa, 50-60-yillarda yaratilgan asarlarida axloqiy-ma‘rifiylik bilan bir qatorda, bola tabiatining turli qirralarini kashf qilish va o‘ziga xos olamini yaratishga intilish ko‘zga tashlanadi”².

“G‘afur G‘ulom bolalar uchun yaratgan asarlarning yana bir qirrasini hayotga endigina kirib kelayotgan yosh bola obrazining o‘ziga xos shakl va yo‘sinlarda tasvirlanishi bilan xarakterlidir. Jumladan, «Chaqchaqlashaylik» she‘ri o‘zbek bolalar she‘riyatida ozgina maqtanchoqroq, ozgina hovliqmaroq, ozgina vahimachiroq bolakay- larning o‘ziga xos, yangicha dunyosi yaratilishi bilan e‘tiborga sazovordir. She‘rda yozgi ta‘tildan qaytib, maktabda o‘qishlarini boshlagan bolalarning har biri yozda nima ish qilgani, qayerda dam olganiyu nimalarni ko‘rgani haqida navbati bilan gapirib beradi:

Ahmad, Meli, Jo‘ravoy
Tyan-Shanga chiqibdi,
Nishon kaltak tiqibdi.
Tusharda o‘n bo‘rining
Qazibdilar go‘rini.
Yog‘lab turib tayoqni
Savabdilar ayiqni.

Shu tarzda boshlangan suhbat (chaq-chaq) to‘xtovsiz davom etave radi. Har bir bola yozda ko‘rsatgan “karomat”lari haqida lof ura boshlaydi. Oysha o‘z qo‘ltig‘ida o‘n besh jo‘ja ochib, jo‘jalarga “A” va “V” vitaminlarni don o‘rnida berib, uch kunda jo‘jalarini tovuqxo‘rozga aylantiribdi, Zokir boqqan baliqlar akvariumga sig‘may, devorni yorib chiqib, daryo izlab yig‘labdi va hokazo”³.

¹ Gafur G‘ulom. Farzandlarimga. Tashkent. Yosh gvardiya, 1983. 1-bet.

² G‘afur G‘ulom va davr. “G‘afur G‘ulomning yangi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusidagi ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent: Universitet 2003.

³ “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali 2018-yil 3-son.

Adibning yoshlar tarbiyasida ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga ham katta e'tibor qaratgan. "O'z davrining dolzarb asari yosh avlodni tarbiyalashdagi qudratli kuch haqida so'zlovchi "Yo'ldosh" dostoni bo'lgan. Fuqarolik urushida yaqinlari Yo'ldoshdan ayriladi. Boshqa yetim bo'lib qarovsiz qolgan bolalar kabi, bu bolakayga ham davlat g'amxo'rlik qiladi — ular uchun boshpana bo'lgan internatlar va bolalar uylari yaratishadi"⁴. Ushbu asarda yozuvchi har bir inson, eng asosiysi har bir yosh avlod davlat kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etishini va ularga bo'lgan e'tiborni ochib bergan.

G'afur G'ulom asaralari va she'rlarining yosh avlodani tarbiyalashda tutgan o'rni yuqorida keltirilgan misollar yordamida qisqacha tushuntirishga urindik. Ammo adib adabiyotining xilma-xilligi va keng qamrovliligi sababli ham ularni qanchalik ko'p talqin qilsak, shunchalik kam bo'laveradi. Ulug' ijodkorlarning buyukligi ham shundaki, ba'zan ularning birgina asari muayyan milliy adabiyotda alohida yo'nalishlar, turkumlar va janrlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Akademik shoir G'afur G'ulomning yuqorida tilga olingan she'rlari o'zbek bolalar she'riyatining keyingi namoyandalari uchun namuna maktabi bo'lib xizmat qilganligi, ular bolalar she'riyatimizda «Lofchilar-aldoqchilar» turkumi paydo bo'lishi va adabiy topishmoq janri takomiliga sabab bo'lganligi fikrimiz dalilidir. Zero, tom ma'noda gi badiiyat namunalari davrlar to'foniga bardosh berib, asrlardan - asrlarga o'taveradi. G'afur G'ulom ijodida ko'plab topiladigan ana shunday haqiqiy badiiyat mahsullari esa barcha davrlarda yosh avlod ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi hamda atoqli shoirimizning bardayet an'analari sifatida bolalar adabiyotimizda yangicha shakllarda namoyon bo'laveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'afur G'ulom. Farzandlarimga. Tashkent. Yosh gvardiya, 1983. 1-bet.
2. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali 2018-yil 3-son..
3. G'afur G'ulom va davr. "G'afur G'ulomning yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent: Universitet 2003.
4. <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>

⁴ <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>